



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

| <u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u> | <u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u> |
|--|---|
| Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц. Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц. Масъул котиб- Д.К.Мурадова | 1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор 7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор 8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф. 11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф 12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD) |
| Муассис-Жиззах давлат педагогика институти | |
| Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда) | |
| Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул | |
| Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт | |

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

ZAFARON O'SIMLIGI VA UNING FOYDALI HUSUSIYATLARI

Ochilova Sevinch- 4-bosqich talabasi

Jizzax davlat pedagogika instituti

Anotatsiya. Ushbu maqola zafaron o'simligi uning foydali va dorivor hususiyatlari, ularning ishlatilish sohalari hamda tarixi haqida yoritildi

Kali so'zlar. Zafaron, sarpoguldoshlar, Krokus, qizil oltin.

Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. 2019 yilda 48 million AQSH dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o'simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan. Shu bilan birga, tahlillar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida

Belgilansinki:

a) dorivor o'simliklar plantatsiyalari resurs tejoychi texnologiyalarni qo'llagan holda, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida ajratiladigan, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan barpo etiladi;

b) dorivor o'simliklar klasterlariga: yer maydonlarini foydalanishga kiritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–5742-son Farmonida;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari, energiya samaradorgaz-gorelkali qurilmalar va qozonlar, shuningdek, energiya samarador boshqa uskunalarni xarid qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya

manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4422-son qarorida;

qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 apreldagi “Agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan o‘z vaqtida ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4268-son qarorida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etiladi.

Zafaron o‘rta asrlardan beri bahosi va qadri tushmay kelayotgan yagona ziravordir. O‘rta asrlarda bir qadoq (450 g) za‘faronni zotli arab chopqir otiga ayirboshlash mumkin bo‘lgan. [1] Bu ziravorning nomi deyarli hamma tillarda arabcha “sariq” ma‘nosini beradigan “za‘faron” so‘zidan olingan bo‘lib, qadimda mazkur noyob o‘simlik-dan bo‘yoqlash moddasi sifatida foydalanilganidan dalolat beradi. Hozirgi davrda za‘faron o‘zining azaliy ahamiyatini yo‘qotib, asosan pazandalikda ishlatiladi va oltin bilan teng baholanadi. Yer yuzida bugungi kunda yiliga faqat uch yuz tonna za‘faron yetishtiriladi. Ma‘lumki, za‘faron insoniyatga ziravorsifatida iste‘mol qilinishi to‘rt ming yildan ko‘proq tarixga ega bo‘lib, bo‘yoq sifatida neolit davrida tog‘larda qoya toshlariga rasm chizishda ishlatilgan. Qadimgi Mesopotamiyada uni taomda ishlatilgan izlari arxeologlar tomonidan aniqlangan. Yozuvlarda u haqda birinchi eslatmalar Shumer sivilizatsiyasi qoldiqlarida kuzatiladi. Eronda eramizdan avvalgi X asrda za‘faron tolalarini qurbonlik o‘raladigan matolarni bo‘yashda ishlatilgan, undan shuningdek kuchli tomizg‘i sifatida foydalanib, attorlik mollari va lazzatli yog‘lar tayyorlashgan. Iskandar Zulqarnayn armiyasida jarohatlarni davolashda ishlatilgan. [1] Qadimgi Ahdda (Tavrotda) za‘faron qurbonlik qilishda yordamchi vosita, bo‘yoqchilik va attorlik moddasi sifatida ishlatilishi haqida bitilgan. Qadimgi Xitoy manbalarida shifobaxsh dori vositasi sifatida eslatilgan. Sharqda budda monaxlari liboslarini bo‘yash uchun ishlatilgan. Yevropada uni ishlatgan boylar jamiyatda kiborlar tabaqasiga mansubligini ifodalagan. Rim arkoni davlati za‘faronni dori sifatida, teri va matolarga bo‘yoq, attorlik moddasi sifatida ishlatgan. U – eng mazali ziravor, sifatli tabiiy bo‘yoq moddasi va qimmatbaho attorlik vositasi, hamma dardlarga davo bo‘luvchi moddadir.

Zafaron – sapsarguldoshlarga mansub ko‘p yillik o‘tsimon tuganak piyozli o‘simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni 2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo‘rg‘ondan qisqa. Ko‘sagi cho‘ziq, eni 6-7 mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel—avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo‘lgani uchun hidi juda o‘tkir va yoqimli. 90-100 ming dona za‘faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Za‘faron gulining

quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlar rangi va ta'mini yaxshilash, oziq-ovqat (pishloq, sariyog', likyor va boshqalarda rang berish uchun), parfyumeriya (atir-upa) sanoatida ishlatiladi. Tabobatda dori-darmon sifatida qo'llaniladi.[3] Sharqda ilgari u “qizil oltin” deb nomlangan. Zafaron qim-matbaholigining sababi ikkita: birinchidan, uni yetishtirish juda mashaq-qatli ish, ikkinchidan, xushbo'yliigi, ta'mi va davolash xususiyatlari bo'yicha za'faron ziravorlar orasida tengsizdir. Za'faron – yiliga bir marta 10-15 kun ommaviy gullaydigan, har bir gul ochilishining davomiyligi faqat 2-3 kun bo'lgan qirmizi “krokus” (lotincha nomi) onalik guli tumshuqlari-ning quritilganidir. Za'faron gullari va xususan onalik gullarini qayta ishlash faqat qo'l mehnati bilan amalga oshiriladi. Onalik gullari tum-shug'i faqat gullarning birinchi ochilgan kuni qirqib olinishi lozim. Uning sifati terim va uni quritishning tezligi bilan bog'liqdir. Bir kilogramm za'faron yig'ish uchun tongda quyosh hali onalik gullarini quritib ulgurmasidan, 150 ming dona atrofidagi guli terib olinishi lozim. Bir gektar yer maydonidan terimchilarning mahorati va ob-havoning munosib sharoitiga qarab 8-12 kilogramm za'faron yig'ib olish mumkin. Zafaronning kimyoviy tarkibi 10-12 % suv, 5-7 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mo'm , 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan. Zafaron ovqat hazm qilishni yaxshilab, ishtahani ochadi, organizmning hayotiy faolligini yaxshilaydi, kishilar undan oshqozon, yurak, jigar nafas olish a'zolari va asab tizimini mustahkamlashda, buyraklarni tozalashda, og'riqni qoldirishda, tinchlantiruvchi, peshob, o't va ter haydovchi vosita sifatida foydalanishadi. Lekin homiladorlikda uni iste'mol qilib bo'lmaydi, chunki u homilani muddatidan oldin tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Za'faron dorishunoslik sanoatida keng ishlatiladi, u sharq tabobatining 300 dan ortiq dori-darmonlari tarkibiga kiradi. Uning damlamasi bilan qadimda kataraktani davolashgan, hozirgi vaqtda ham u ko'zga tomiziladigan dorilar tarkibiga qo'shiladi. Zafaron butun organizm hujayralarini oziqlantiradi, terini silliq qiladi, rangni tiniqlashtiradi, xotira va aqliy faoliyatni yaxshilaydi, kayfiyatni ko'taradi. Zafaron 100 dan ortiq xastaliklarni davolovchi shifobaxsh xossalarga ega. Amalda har qandalik xastalik, u boshlanish bosqichidami yoki rivojlangan oxirgi bosqichidami, bundan qat'iy nazar, zafaron yordamida 85-87 % ga shifo topadi. Tadqiqotlar buni qayta-qayta isbotlagan.

Zafaronning shifobaxsh xossalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi); Qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi); Miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini oziqlantiradi) Nevrozdan

forig' qiladi; Bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos etadi; Oshqozon-ichak faoliyatini me'yorga keltiradi; Ortiqcha o'tdan xalos etadi; Buyrak va qovuqni davolaydi (asal aralashtirilgan za'faron buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi); Antioksidant ta'sirga ega (energetik modda almashinuvini yaxshilaydi, zararli moddalarni chiqarib yuboradi); Organizmni quvvatlaydi; Ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasidagi illatlarni davolaydi; Ereksiyani yaxshilaydi; Hayz siklida og'riqni yengillashtiradi; Terining kuygan va shish paydo bo'lish holatlarida ularni davolaydi; Allergiyadan xalos etadi; Ichkilikbozlik illatidan xalos etadi; Shamol va spazmalarni chiqarib yuboradi; Butun organizmni yoshartiradi; Organizmdagi radiatsiya darajasini pasaytiradi.[2]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam zafaron o'simligini o'rganish undan tibbiyotda va xalq xo'jaligida foydalanish ayniqsa dori preparatlarini ishlab chiqarishda zafaronni qo'llash ko'pgina kasalliklarni davolashda va oldini olishda foyda beradi. Zafaron o'simligi plantatsiyasini ko'paytirish va ekin maydonlarini kengaytirish orqali O'zbekiston farmatsevtika sanoati uchun tabiiy xom ashyo yetkazish va tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarish ko'rsatkichini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://biosfera.uz/zafaron/>
2. <https://xalq-tabobati.uz/uy/2095/tabobat-dorixonasi/zafaron-ziravorlar-sultoni-va-sultonlar-ziravori/>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Za%CA%BCfaron>